

ILK O'RTA ASR USTYURTNING ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI (V-XI asrlar)

*Jumaniyazova Feruza Maxsetbay qizi.
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
Tarix fakulteti bakalavr arxeologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs
talabasi*

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОГО УСТЮРТА (V-XI ВВ.)

*Джуманиязова Феруза – дочь Махсетбай, Каракалпакский
государственный университет имени Бердаха, Студентка 2
курса исторического факультета, специальность археология*

ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF EARLY MEDIEVAL USTYURT (V-XI CENTURIES)

*Jumaniyazova Feruza Makhsetbay qizi, Karakalpak State
University named after Berdak, 2nd year student of the Faculty of
History, archeology major*



Tel: +998912668205
jumaniyazovaferuza087@gmail.com
ail.com

Annotatsiya: Xorazm vohasiga chegaradosh Ustyurt hududi tog'risida ilk o'rta asrlar haqida ma'lumotlar ko'p. Shular jumlasidan Ibn-Ruste, Al Istahri (IX-X), Ibn Fadlon (922-yil), Al Muqaddasi (985-yil), Ibn Battuta (1333-yil), A. Djenkinson (1558-yil) va yangi davr olimlarining asarlaridan o'qib o'rganamiz.

Kalit so'zlar; Ustyurt, Ibn Fadlan, Urganch, Xorazm, S.P. Tolstov, G'arbiy elatlar, Y.G'ulomov, Katta Aybuyur, Kichik Aybuyur, Qosbuloq.

Аннотация: Имеются источники раннего средневековья о области Устюрта, граничащей с Хорезмским оазисом. Среди них Ибн Русте, Аль Истахри (IX-X), Ибн Фадлан (922 г.), Аль Мукаддаси (985 г.), Ибн Баттута (1333 г.), А. Дженкинсон (1558 г.) и учёные новой эпохи, о которых мы узнали в его трудах.

Ключевые слова: Устюрт, Ибн Фадлан, Ургенч, Хоразим, С.П. Толстов, Гарб Елатар, Ю.Гуламов, Большой Айбур, Малый Айбур, Касбулок.

Annotation: There are sources from the early Middle Ages about the Ustyurt region bordering the Khorezm oasis. Among them are Ibn Ruste, Al Istakhri (IX-X), Ibn Fadlan (922), Al Muqaddasi (985), Ibn Battuta (1333), A. Jenkinson (1558) and scientists of the new era, which we learned about in his works.

Key words: Ustyurt, Ibn Fadlan, Urgench, Khorazim, S.P. Tolstov, Garb Elatar, Yu. Gulamov, Big Aibuyur, Small Aibuyur, Kasbulok.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).
Ibn Fadlan (921-922-yil) "Risolasida" Jurjondan (Urganch) Ustyurt tarafidagi yo'lda "Bab at turk" (Zamdjan-Shemaha shahar), keyin esa Git-Jit (Pulijoy) ilk o'rta asr manzilgoh joylariga

aylantiriladi. Bular orasidagi masofa forsah (5,6 km.) o'lchamda berilgan. Ustyurt dashtidan ibn Fadlan ketgan karvon yo'li bilan 10 yil yurib Sharqiy Kaspiy bo'ylariga borgan [8.28-40]

Al-Xamaviyning Subrna haqidagi ma'lumoti Xorazmning Eron tarafidagi chegara vohalarini aniqlashga yordam beradi. S.P.Tolstov Subrani Shax yodgorligi bilan taqqoslaydi.

Lekin aytish joyizki, Al-Xamaviy Xorazmga yaqin Ustyurt yodgorligini kam eslaydi.

Sharqiy Evropada Ustyurt orqali kelgan savdo yo'li to'g'risida buyuk sayyoh Ibn Battuta (1333-yil) ham o'zining "Sayohat" asarida yozgan [5. 145]

Xorazmning Ustyurt bilan Sharqiy Evropaga bo'lgan aloqalari, mahalliy sharoitga savdo ishlari, harbiy ishda temir qurollardan foydalanganligi so'ngi feodalizm davridagi manbalarda ham yozilgan. Jumladan "Moskva-Londan" savdo firmasi agenti Antonni Jenkenson 1555-yil Ustyurt orqali yani Dav-Kesken (Sellyuzer) Xorazmda bo'lib mahalliy temirchilarning kamon va kamon o'qi an'anaviy uslubda ishlanadiganini yodga tushiradi [6.178]

MAVZUNING DOLZARBLIGI (АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕМЫ/RELEVANCE OF THE TOPIC)

Biz keltirgan mualliflar asarlaridan parchalar ilimiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum, ularda keltirilgan ma'lumotlar qisman ilmiy tadqiqotlarda ozli-kam foydalanilgan. Lekin, bu manbaiy ma'lumotlar Ustyurt va Xorazmshohlarning davridagi moddiy madaniyat tarixi maxsus chuqur o'rganilmagan. Aslida zikr qilingan mu'alliflar asarlari ma'lumotini arxeologik tadqiqot manbalari bilan taqqoslash shubhasiz ijobiy xulosalarga olib keladi [2.36-45]

Umuman olganda, arxeologiya fanida ilk o'rta asrlar mabalarida tilga olingan Ustyurt va Xorazm shaharlarining joylashgan o'rni va uning harobalari bizning kunlarimizda qaysi yodgorlik misolida yetib kelgan? - degan muammo yechimini topishida Y.G'.G'ulomovning "Xorazmning sug'orish tarixi" shox asarida o'sha davrlardan boshlab yechilishi kerak bo'lgan masalalarga aniqlik kiritiladi. Olim "Buyuk Xorazmshohlar" davrida Tekeshdan boshlab Xorazmning chetki hududlarida madaniy hayot, savdo aloqalari gurkirab rivojlanishi, shaharsozlik zonalarining kengayishi (Ustyurt va "Shahriston yo'li" tomon), oqibatida XI-XIII asrlardagi siyosiy va madaniy yuksalish voqa tarixidagina emas "musulmon Sharqida" ham o'rta asrda kuzatilmaganligini ta'kidlaydi [9.55-87]

MUHOKAMA(OБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)
Umuman olganda, akademik Y.G'. G'ulomovning tarix, arxeologiya, etnografiya, sharqshunoslik

manbalari bilan mukammal ishlashi tufayli Ustyurt qirlariga yaqin joylashgan yodgorliklar (Tuproq qala, Bug'raxon, Puljoy) Xorazm tarixining ko'plagan sohalarini o'rganishda tadbiiq qilish mumkin [3. 220-230]

Ko'plagan kitoblar orasida Xorazim etnografiya ekspeditsiya xodimlari Ustyurt to'g'risida yozgan savdo aloqalari haqida ma'lumotlar bor. Jumladan ekspeditsiya xodimlaridan S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, E.E.Nerazik, Yu.A.Rapoportlar o'zlarining bir qancha asarlarida Ustyurt yodgorliklari (Shemaxa qala, Katta Aybuyur), madaniy jihattan va savdo aloqalari bilan aloqada o'rganib yozdi. Jumladan ular chop etgan maqola va kitoblardan so'ng yosh olimlarning tadqiqotlariga ko'rsatma-kitob chizmalarini bajaradi. Ayrim elatlarning tarixini yozishda yordamlashdi. Shunday ekan, biz yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning tadqiqotlariga alohida to'xtab o'tmasak bo'lmaydi [4.167]

1946-1947-yillari S.P.Tolstov Ustyurt bo'ylab aviya va avtomobil yo'li bo'ylab tekshirish ishlarini olib borgan. Bu tadqiqotlar vaqtida ilk o'rta asr shahar qo'rg'onlari bilan birga Buloq, Uchquduq, Qosbuloq, Kichik Aybuyur kabi qo'rg'on, karvon-saroylar va Qarovul tepalar o'rganilgan.

Umuman, Markaziy Osiyo arxeologiyasining yirik namoyondasining biri Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining tashkilotchisi S.P.Tolstov boshqa dala tadqiqotchilari bilan birga Ustyurtdagi ilk o'rta asr, Xorazmshohlar-Anushhteginlar, Oltin O'rda davri arxeologik yodgorliklarini tekshirishni tashkil qiladi.

NATIJALAR TAHLILI (АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ/ANALYSIS OF RESULTS)

Ilk o'rta asrlardagi Xorazmning Ustyurtdagi davrlar sulolasiga taalluqli yodgorliklarni, ilk o'rta asr qo'rg'onlarini tadqiqot etishda, savdo-sotiq ishlarini o'rganish jarayonida Qoraqalpoq arxeologiyasida katta ishlar qildi. Ustyurt va Xorazm vohasida arxeologik yodgorliklarni o'rganish sohasida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarixi, arxeologiya va etnografiya institutini tashkil qilinishi (1959-yil) o'rta asr yodgorliklarini tadqiqot qilishda katta ochilish va yutuqlarga olib keldi. Institutning Arxeologiya bo'limi rahbari, professor V.N.Yagodin rahbarligida 1958-1960-yillarda Amudaryo havzasidagi O'ng va Chap qirg'oqlaridagi o'rta asr yodgorliklarini ilk bor tizimli qidiruv tadqiqotlarini olib bordi. Bu yillari

tadqiqotchilar tomonidan Ustyurtga qo'shni, chegaradosh joylashgan Munshoqli, Tuproq qal'a (Qo'ng'iroq tumani), Tomar qal'a I-II-III, Bugraxon, Puljoy kabi ilk o'rta asr (IX-X asr) ko'chmanchi dala zonasida mudofaa qo'rg'onlari qurilganligi qayd etilgan. Tekshiruvchilar yakuni bu Ustyurt kirish tizimi bo'ylab joylashgan shaharsozlik madaniyatining chegara, hududlari yodgorliklari, Xorazm davlatining shimoliy qismidagi qadimgi va o'rta asrdagi dehqonchilik madaniyati o'choqlaridan biri ekanligini isbotladi, bu maskanlar vohaning ilk shahar madaniyati shakllangan joylardan biri, - deb qayd etildi.

Keyin, mazkur institutning xodimi, tarix fanlari doktori M.M.Mambetullayev, V.N.Yagodin va fan nomzodi Yu.P.Manilovning XX asrning 80-90-yillaridagi olib borgan yangi tadqiqotlarida bu hududlardagi Aybuyur mikro-oazisida, Ustyurt qirlaridagi ilk va o'rta asr va Xorazmshohlar davri yodgorliklari o'rganiladi.

Ilk o'rta asrning oxirlaridan Ustyurt yodgorliklarida uchrashadigan chinni mahsulot Xorazm kulolchilari tayyorlagan mahsulotlarining ikkinchi turkumi sirlangan buyumlar tashkil qiladi. Bu davrda voha kulolchilari o'z mahsulotlarni sariq, ko'k, yashil, qo'rg'oshindan tayyorlagan rangsiz qorishma turdagi sirlar bilan qopladilar.

Ustyurt yodgorliklarida O'rta Osiyoning urbanizatsiya markazlarida tayyorlangan mahsulotlari oz bo'lsa-da shishasozlik hunarmandchiligi to'g'risida, ayrim tarixiy-madaniy hududlarda bu soha bo'yicha ma'lumotlar to'plash imkoni berdi. IX-X asr Ustyurt va Xorazim yodgorliklarida aniqlangan shisha buyumlar kolleksiyasi son jihatdan uncha katta bo'lmasa-da, ularning evolutsion rivojlanish jarayonlarini ko'rsatishi mumkin. Lekin ularning ayrimlarigina [Shemaha qal'a, Puljoy, Bugraxon topilmalari] ilimiy adabiyotlarda chop etilgan va qisqacha tafsiflanadi. Ammo buyumlarning yuzaga kelishi, tarqalishi va sistemikasi ayrim obyektlarga taalluqli bo'lib, ularning tahlili keng ko'lamdagi izlanishlarni, umumlashtirishni taqozo etadi. Shishasozlik mahsulotlari nihoyatda yuqqa ishlangan deraza oynalar, parfumer idishlari, tuvak shaklidagi buyumlar va sumaklardir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)
Shunday qilib, Ustyurt va unga chegaradosh Xorazm

vohasi qishloq va shaharlarining joylashish, qurilish va mudofaa inshootlari tarixini o'rganish davrida Amudaryoning o'ng va chap sohili hududidagi qadimgi va ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan shahar arxeologik yodgorliklarida keng miqyosda arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida yangi ashyolar to'plandi. Yodgorliklarning qadimgi va ilk o'rta asr davr qo'rg'onlari mudofaa tizimi tarixiga oid qatlamlardan olingan ashyolarni tahlil qilish asosida yirik fundamental asarlar vujudga keldi [7. 220-230]

S.P.Tolstov "Древний Хорезм" (1948) "По следам древних Хорезмийского цивилизации" (1948) "По древним дельтам Окса и Яксарта" (1962), Y.G'ulomov "Xorazmning suvg'orilish tarixi" (1959), E.E.Nerazik "Сельское поселение афригидского Хорезма" (1976) asarlari shular jumlasidan.

S.P. Tolstovning yuqorida qayd qilingan asarlarida Ustyurtning qadimgi va ilk o'rta asrlar shaharlarining me'moriy, topografik tuzilishi va mudofaa tizimi to'g'risida umumiy ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularning shaharsozlik, mudofaa tizimidagi o'rni arxeologik jihatdan keng miqyosda o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES)

1. Матералы по истории туркмен и Туркмени. (МИТТ) Том 1. М-Л 1939
2. Матералы по истории туркмен и Туркмени. (МИТТ) Том 1 М-Л 181
3. Матералы по истории туркмен и Туркмени. (МИТТ) Том 1 М-Л 415
4. С.П.Толстов. Древний Хорезм. Москва. 1948. С. 167.
5. Иброхимов Н. Ибн Баттутанинг Ўрта Осиёга саёхати. Тошкент. 1993. С. 145.
6. Дженкинсон А. Путешествие в Средней Азии 1558-1560 гг. Лондон. 1938. С. 178.
7. Гулямов Я.Г История орошения Хорезма. Тошкент-1992. С.158.
8. С.П. Толстов. По следам древних хорезмийского цивилизации. Москва. 1948. С. 228.
9. Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. На средневековом городище Шемаха кала. С. 173.